



**Bog'chaga bormagan bolalar ularni kim o'ylaydi?**

3-betda o'qing



**Murojaatga bee'tibor qaragan mas'ullar jazosiz qolmaydi**

6-betda o'qing

# INSON va qonun

2023-YIL  
12-SENTABR  
SESHANBA  
№ 36 (1396)

www.hudud24.uz

@adolat\_nashrlari



**"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!**



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!

[www.adolatmarkazi.uz](http://www.adolatmarkazi.uz) [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) [facebook.com/hudud24official/](https://facebook.com/hudud24official/)

"Adliya spartakiadasi" vazirlik tizimida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, xodimlar o'rtasida sportni yanada ommalashtirish, ularning salomatligini mustahkamlash, sport bilan muntazam shug'ullanishini rag'batlantirish, shuningdek xodimlar o'rtasida jamoaviy va do'stona muhitni shakllantirish maqsadida tashkil qilindi.

Spartakiadada 9 ta adliya muassasasi jamoalari sportning 9 turi bo'yicha o'zaro bahs olib borishdi. Musobaqalar 3 kun davomida, sport prinsiplariga qat'iy rioya qilgan holda bo'lib o'tdi.

Xotin-qizlar sportning darts, badminton, stol tennis, yengil atletika, shaxmat hamda shashka kabi turlarida, erkaklar esa mini-futbol, armresting, yengil atletika, shaxmat hamda shashka kabi sport turlarida bellashishdi.

Adliya spartakiadasida xotin-qizlar o'rtasida shashka musobaqalarida 1-o'rin TDYU xodimi Malika To'ychiyevaga, 2-o'rin YuMOM xodimi Shaxzoda Abdullayevaga, 3-o'rin esa "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi xodimi - Nilufar Rahmatullayevaga nasib etdi. Erkaklar o'rtasidagi shashka musobaqalarida esa 1-o'rin AKTRM xodimi Sardor Salimovga, 2 va 3-o'rinlar esa "Adolat" MHAM xodimlari Dilmurod Mamatmurotov, Salamat Turemurotovga nasib qildi.



**Adliya vazirligi muassasalarida faoliyat yuritayotgan sportchi-yuristlar o'rtasida "Adliya spartakiadasi" o'tkazildi. Shu kuni vazirlik muassasalari jamoalari Toshkent viloyatining so'lim tabiat bag'ridagi "Olmos" dam olish maskanida yig'ilishdi.**

## ADLIYA SPARTAKIADASI NIHOYASIGA YETDI

Stol tennis bo'yicha xotin-qizlar o'rtasida o'tgan bellashuvda 1-o'rin TDYU xodimi Malika To'ychiyevaga, 2-o'rin esa "Adolat" MHAM xodimi Charos Yuldashevaga, 3-o'rin "Davlat xizmatlarini rivojlantirish markazi" davlat muassasasi xodimi Farzona Shakarovaga nasib etdi. Stol tennis bo'yicha erkaklar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada 1 va 2-o'rinlar TDYU xodimlari Sherzod Xayitov, Xumoyun Soyipovga 3-o'rin esa X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi xodimi Elyor Qayumovga nasib etdi.

Shaxmat bo'yicha erkaklar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada 1-o'rin yana TDYUga nasib qilib, universitet xodimi Botir Boymurodov 1-o'rin egalladi. AKTRM xodimi Islombek Qurbonov 2-o'rin, 3-o'rin esa X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi xodimi Qahramon Umidilayev qo'lga kiritdi.

Armresting bo'yicha erkaklar o'rtasida o'tkazilgan muso-

baqada 1-o'rin "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi xodimi Damir Dominov, 2-o'rin X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi xodimi Javohir Dusmatov, 3-o'rin "O'zarxiv" agentligi xodimi Javohir Najmiddinov qo'lga kiritdi.

Xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilgan badminton musobaqasida 1-o'rin TDYU xodimi Irina Kolokina, 2-o'rin "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi xodimi Nilufar Rahmatulayeva, 3-o'rin esa YuMOM xodimi Dilorom Shayunosova egallab, g'oliblik shohsupasiga chiqishdi.

Sportning darts turi bo'yicha xotin-qizlar o'rtasidagi bellashuvda 1-o'rin "Adolat" MHAM xodimi Shaxnoza Shukurovaga, 2-o'rin Personallashtirish agentligi xodimi Mavlyuda Mansurovaga, 3-o'rin "O'zarxiv" agentligi xodimi Komila Fayziyevaga nasib etdi.

Xotin-qizlar o'rtasidagi yengil atletika musobaqalarida esa 1-o'rin "O'zarxiv" agentligi xodimi Saida Adilova, 2-o'rin X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi xodimi Taisiya Ramadanova, 3-o'rin TDYU xodimi Irina Kolokina qo'lga kiritdi.

Yengil atletika bo'yicha erkaklar o'rtasida o'tkazilgan bellashuvda 1-o'rin "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasi xodimi Shavkat Rasulovga, 2-o'rin "Adolat" MHAM xodimi Jahongir Muxamedovga, 3-o'rin "O'zarxiv" agentligi xodimi Jamol Qurbonovga nasib etdi.

Arqon tortish bo'yicha 1-o'rin TDYU, 2-o'rin X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi, 3-o'rin "Adolat" MHAM jamoalariga nasib qildi.

Ko'pchilikning e'tiborini tortgan va murosasiz o'tgan "Mini-futbol" musobaqalarida esa 1-o'rin TDYU, 2-o'rin "Adolat" MHAM, 3-o'rin esa AKTRM jamoasiga nasib etdi.

1, 2, 3-o'rin shohiblari pul mukofoti, sertifikat hamda medallar bilan taqdirlanishdi.

O'z muxbirimiz





## 2 "MADAD" JAVOB BERADI



Savollarga "Madad" NNT Samarqand shahar huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi

**Malika TOLLIBOYEVA**  
javob berdi


 SAMARQAND SHAHRI


## Ijtimoiy soliq miqdori qancha?



– Men hozirgi kunda umumiy ovqatlanish yo'nalishida tadbirkorlik subyekti tashkil qilib, faoliyat yuritib kelayapman. Shu turdagi tadbirkorlik subyektlariga ijtimoiy soliq uchun imtiyoz davri qancha muddat qilib belgilangan?

Elbek XUDOYQULOV

– Soliq kodeksining 483-moddasiga ko'ra, chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), avtotransport vositasida yo'lovchi va yuk tashish, avtotransport vositalarini ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish, kompyuter xizmatlarini, maishiy texnikani ta'mirlash, agro va veterinariya xizmatlari ko'rsatuvchi, shuningdek ko'ngilochar markazlarda xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari – 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvargacha qadar bo'lgan davrda ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdordagi soliq stavkasi bo'yicha to'laydi.

 SAMARQAND TUMANI


## Talabalar yotoqxonasi qanday olinadi?



– Yaqinda oliy o'quv yurti talabasi bo'ldim. Talabalar yotoqxonasiga joylashmoqchiman. Qayerga murojaat qilishim kerak?

Maxliyo BAXTIYOROVA

– Vazirlar Mahkamasining 376-son qarori bilan Davlat oliy ta'lim muassasalarining talabalarini talabalar turar joyiga joylashtirish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlangan. Mazkur Reglamentga asosan, yangi joriy qilingan davlat xizmati bu yil davlat oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirgan talabalarga Davlat xizmatlari markazlari yoki my.gov.uz orqali bepul elektron tarzda ariza yuborgan holda yotoqxonaga joylashish imkonini beradi. Talabalar yotoqxonasiga joylashish uchun berilgan yo'llanma 10 kun muddatga amal qiladi.

 OQDARYO TUMANI


## Mol-mulk solig'i to'lamaymanmi?



– Pensionerlar mol-mulk solig'idan to'liq ozod bo'ladi, deb eshitdim. Nafaqaga chiqdim. Endi mol-mulk solig'i to'lamaymanmi?

Shoira RAHIMJONOVA

– Soliq kodeksining 421-moddasiga asosan pensionerlar hamda I va II guruhi nogironlari mulkida bo'lgan mol-mulk solig'idan 60 kv.metr doirasida soliq solishdan ozod qilingan. Pensionerlar ushbu huquqlaridan pensiya guvohnomasini, I va II guruhi nogironligi bo'lgan shaxslar esa pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasini o'zi yashab kelayotgan hududdagi soliq organiga shaxsan taqdim etish yo'li bilan foydalanishi mumkin.

 SAMARQAND SHAHRI


## Stipendiya haqida ma'lumot bersangiz?



– Yaqinda Yoshlar siyosati va sport vazirligining stipendiyasi joriy etilgan haqida eshitdim. Shu stipendiya haqida to'liqroq ma'lumot bersangiz?

Marjona ESHMURODOVA

– 2023-yil 7-apreldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qaroriga ko'ra, 2023-yil 1-iyuldan "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining stipendiyasi" joriy etilishi belgilangan. Bunda stipendiya miqdori mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 3 baravari etib belgilanadi. Mazkur stipendiya tayinlangan sportchilarga Prezidentning tegishli qarorida belgilangan tartibda o'zini o'zi band qilish huquqi beriladi.

 KATTAQO'RG'ON TUMANI


## Uyimiz ta'mirlab beriladimi?



– Uy-joyimiz yashash sharoitida emas. Xotinim "Ayollar daftari"ga kiritilgan. Uyimiz davlat tomonidan ta'mirlab beriladimi?

Sherzod RAMAZANOV

– Vazirlar Mahkamasining 145-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning bir nechta yo'nalishlari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida og'ir turmush sharoitidagi (uy-joyi ta'mirlashga muhtoj, biroq oilasining moddiy imkoniyati yetmaydigan) xotin-qizlarning uy-joyini ta'mirlash ishlari olib borilishi ko'rsatilgan. Qarorda har bir uy-joyini ta'mirlash ishlariga "Ayollar daftari" jamg'ar-masi hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari (9 million 900 ming so'm)gacha miqdorida mablag' ajratilishi belgilangan.

 BULUNG'UR TUMANI

## Nazoratchi xodimning harakati qonuniymi?



– Mashinaga qo'yiladigan radarni YPX xodimi mening avtomashinamga o'rnatishni taklif qildi. Nazoratchi xodimning bu harakati qonuniymi?

Feruz TOHIROV

– Vazirlar Mahkamasining 975-son qarori bilan tasdiqlangan nizomga ko'ra, YPX xodimlarining patrul avtomobillariga o'rnatilgan radarlarni o'zboshimchalik bilan yechib olib, xizmatga aloqasi bo'lmagan boshqa shaxslarning transport vositalariga o'rnatishi qat'iyan taqiqlanadi. Shuningdek, xizmatni o'tashga aloqasi bo'lmagan fuqarolarni ushbu maqsadlarga jalb qilish ham mumkin emas.

Bizning qishloqda bog'chaga bormagan bolalar talaygina. Bog'cha ko'rganlari esa sanoqli, sababi, qishloqda bog'chani o'zi yo'q. Xususi bog'chalarni qishloq odamlarining cho'ntag'i ko'tarmaydi. Mahalliy aholi mas'ullarga murojaat qila-qila charchagan. Hatto shu hudud deputati davlat bog'chasi kerak, degan talab bilan chiqqanida mas'ullardan "xususi bog'cha oching, yordam beramiz" degan javob bo'lganiga nima deysiz? O'zingiz bir o'ylab ko'ring, bu javob mantiqqa to'g'ri keladimi?!

#### OG'IR GUNOH, YANA KIM BILSIN...

Hayotda eng og'ir gunoh bolaning rizqini qiyish, bolani aldash bo'lsa kerak, yanayam bilmadim. O'shanda talaba edim. Ham oliyog'ohda o'qiyman, ham tuman gazetasida ishlayman. Odatiy ish kunlarining birida bosh muharrirning topshirig'i bilan "reyd"ga chiqadigan bo'ldim. Yosh, dadil fe'lim bor, berilgan topshiriqni ko'ngildagidek bajarib, monitoring qilingan maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati bo'yicha maqola tayyorlab, topshirdim. Ammo, taassufki, oy o'tsa hamki, maqola gazeta yuzini ko'rmadi. Poytaxtdagi gazetalarining birida jamoatchi muxbir edim. Shunday kunlarning birida gazeta bosh muharriri xuddi shu mavzuda maqola yozib berishimni so'rab qoldi. Bo'lgan voqeani opaga tushuntirdim. Tanqidiy bo'lsa ham beramiz, to'g'ri so'zni aytishdan qo'rqmang, dedilar. Ta'tilda edim, qishloqda, uydaman. O'sha paytlarda qishlog'imizda bog'cha bo'lardi. Bog'cha mudirasi uyimizga kelibdi. Gapirmasdan avval nima bo'lganini tushungandek bo'ldim. Demak, maqola chiqqan...

Dushanba kuni ishga chiqdim. Bosh muharrir bilan meni tuman hokimining o'rinbosari chaqirtirgan ekan. O'sha manzara shuncha yil o'tsa ham, ko'z o'ngimdan ketmaydi. Bog'cha mavzusi qo'zg'aldi, deguncha yodimga kelaveradi, bir vijdonim qiynaladi, bir to'g'ri qilganman, deyman.

Hokim o'rinbosarining xonasida qo'lida gazeta bilan jig'ibiyron bo'lib o'tirgan mudir bizga o'qayib qarab qo'ydi. O'rinbosar esa muloyimlik bilan gap boshladi, tuman gazetasida hokimlikning yuzi ekanini aytdi. Jurnalist o'z faoliyatida erkinligini ham esga oldi. Lekin "maslahatlashib, maqolani bizga bir ko'rsatib olibmasiz-da" dedi. Ustozim yoshligimni, talaba ekanimni aytdi. Mudir battar jig'ibiyron bo'ldi, gazetaga qancha obuna tashkillashtirganini aytib, bizni qarzdorga chiqardi. Ochiq-oydin "shuncha obuna qildirisagu shunaqa munosabatmi, tepadagilarga sharmanda bo'ldik-ku..." dedi-da jahl bilan gazetani stolga otdi.

Bir ko'zim gazetada, ta'tilda bo'lganligim uchun xali maqola qanday chiqqaniniyam ko'rmaganim

**Bolalikni eslaganda, birinchi muallim haqida gap ketganda, maktabdan oldingi ta'lim, maktabgacha ta'lim yodga tushadi beixtiyor. Hammaning ham bu mavzuda shirin xotiralar bor. Bog'chaga bormagan bolalar esa...**



## Bog'chaga bormagan bolalar ULARNI KIM O'YLAYDI?

uchun qiziqib ketyapman. Bir xayolim bu odamga nima deyishda... Ichim to'la nafratni sochganim bilan unga jurnalist erkin fikrlashga haqli ekanini tushuntirib bo'lmagligini bilib turib ham, yumshoqqina qilib gazeta obunachilarga vaqtida yetib borayotganini aytdim. Bunday deyish ustozlarimizga rahbarlik qilayotgan ziyoli insonga yarashmasligini ham shunday chiroyli qilib aytdimki, o'shanda bor jahlimni qanday jilovlaganimga o'zim ham hayronman.

"Siz xonaga borib ishingizni qilavering" degan topshiriqdan keyin xonadan chiqdim. Qabulxonadagi ahvolni ko'rib, xangu mang bo'ldim. Tumandagi 35 ta bog'chani mudiralar tik oyoqda turib, xali unisi, xali bunisi pichirlab gapirardi bir-biriga. "Shu qizchami? Voy, shu qizcha-ya?" degan pichir-pichirlar, qosh chimirishlarni ko'rib, rosti, "sdaqai odam ketlaring!" degim keldi. Yig'lagim kelayotgandi, lekin o'zimni mag'rur tutdim.

Shu ishlardan keyin oradan ko'p o'tmay, qishlog'imizdagi bog'cha yopildi. Yigirma yildan oshdi hamki, qishloq odamlarining peshonasiga yangi bog'cha bitmadi, men bo'lsam bu mavzuni yozishdan charchamadim. Vijdonimni qiynaydigan narsa - shu hudud deputati bo'lib ham, bolalar uchun bog'cha muammosini matbuotga, TVga olib chiqib ham maqsadga erisholganimcha yo'q.

Amal kursisi shunday narsa ekan-ki, o'tirgan odamni ko'zini yog' bosib, to'g'ri yashashni unutarikan. Bolaning haqidin ham qo'rqmas ekan. "Go'sht kam kelishi", bolalarning haqidin hamma o'z "dolya"sini olishi, isitish tizimining nosozligi-yu, yana bir qancha muammolarni to'g'risini aytib bergan mudira opalar ham aytgan gapidan tonib, amal kursisini o'lasa, yosh bo'lsang, tajribang kamu himoyaching bo'lmasa, qiyin ekan.

#### "ENDI OYIMNI BOG'CHASIGA BORAMAN..."

Bu besh yoshli qizaloqning gap. Qishloqdagi oddiy bir yosh oila. Er-xotinning har ikkisi ham oliyog'oh talabasi, sirtqi yo'nalishda, kontraktga o'qishadi. Ikkinchi farzandini kutayotgan kelinchak har kuni qizalog'ini tuman markazidagi bolalar bog'chasiga olib borish uchun atayin atelega chevar bo'lib ishga kirgan. Eri qo'li gul usta, o'qishdan bo'sh payti yolanma ustachilik bilan shug'ullanadi. Birovning ishi tushsa, yo'q demaydi, ozmi-ko'pmi moyana, goh narigi qishloqdagi allakimning yangi imoratini tomini yopadi, goh deraza-eshigini o'rnatadi, g'ishtini teradi, polini qo'qadi, xullas, qo'ldan nima ish kelsaki, bajarib, ham ro'zgoriga, ham kontrakt to'loviga pul jamg'aradi. Qishin-yozin tinimi yo'q. Endi xuddi shu oilaning birgina bolani bog'chaga berish uchun qilayotgan xarajatini xomcho't qilaylik. Bog'cha to'lovidan tashqari yo'l haqi uchun o'rta hisobda 500 ming so'mga tushayotganiga nima deysiz. Sababi, qishloqdan tuman markaziga qatnaydigan yo'lovchi avtobusning o'zi yo'q. Yo'nalishsiz taksilar esa yo'l haqi narxini o'zi belgilaydi. Birov ularning "mushugini pisht demaydi".

Xonadonidagi uy ishlari, ham o'qish tashvishi, yana ishga kirish... eng yomon, ortiqcha kundalik xarajatlari ikki talaba yoshning sillasini quritdi. Oxiri, ikkinchi farzandini kutayotgan talaba kelinchak oilaviy sharoitidan kelib chiqib, maktab yoshiga yaqinlab qolgan qizini bog'chaga bermaslikka qaror qildi.

Shu kelinchakka o'xshagan qo'lida hunari bor kelinlar-ku, mayli, bolani bog'chaga olib borish uchun ham ishga kirib, biryola tuman markazigami, poytaxtgami ishga borib-kelib, bolasini bog'chaga berishni amal-layapti. Uy bekalari bo'lgan qanchadan-qancha kelinchaklar uchun esa bolasini bog'chaga berish katta bir orzu!

#### "G'AYRAT"LIK LARINING G'AYRATI QOLMADI

Yuqorida hikoya qilganlarim Chinoz tumanining "G'ayrat" mahallasidagi ahvol. Uch-to'rt yilcha avval qo'shni qishloq bilan shu mahalla "Obod mahalla" dasturiga kiritilib, qo'shni qishloqda 40 o'rinni bog'cha qurilgandi. Amalda esa bu bog'chaga 60 dan ortiq bola qabul qilinadi. Sababi, oddiy, aholi soni bilan solishtirganda, qurilgan bog'chani qabul hajmida nomutanosiblik seziladi.

Davlat-xususi sherikchilik asosida ochilayotgan maktabgacha ta'lim muassasalari ham bor-ku, desiz. Hamma narsa aholining moddiy tomondan sharoiti bor-yo'qligiga bog'liqligini hisobga olsak, davlat bog'chasi narxida qaysi mard tadbirkor bu hududda zamonaviy bog'cha ocharkin, deysiz. Albatta, hech kim! Sababi, tadbirkorlikning ham o'ziga yarasha ming muammosi bor. Buni hammamiz yaxshi bilamiz. Shuning uchun hududda hech bir tadbirkor yurak yutib xali bu mardlikni qilolganicha yo'q!

Bolasini tuman markazidagi bog'chaga berayotgan "G'ayrat"-liklarning ham g'ayrati qolmadi. Sababi, ortiqcha xarajati cho'ntak ko'tarmayapti. Yozning saratonida keyingi yillardagi suv taqchilligi sabab tomorqasidagi ekini qovjirab qolgan qishloq odamlari qayerdan daromad qilsin?! Daromadi bo'lmasa, bolasini qanday qilib bog'chaga beradi. Yaxshiyamki, boshlang'ich ta'lim bepul. Maktab ta'limi - majburiy ta'lim davlat tomonidan kafolatlangan. Aksincha bo'lganida, bog'chaga bormagan bolalar tengqurlari kabi xorijiy tillarni bilmasdi, savodsizligicha qolardi.

#### "QO'LDAN BERGANGA QUSH TO'YMAydi"

"Qo'ldan berganga qush to'ymaydi". Har bir ro'zgorning o'z kamu ko'sti bor. Oilaning moddiy ahvolidi yaxshilash uchun er-xotin "qo'sh ho'kiz" bo'lib, bir-biriga yordam beray deb, qayerda bo'lsa ham ishlayapti. Qishloqning o'zida deyarli ish joyi yo'q. Fermerchilik, klasterchilik degan tizimlar ham qishloq aholisini yetarlicha ish o'rni bilan ta'minlay olgani yo'q! Qo'shni qishloqdan tortib qo'shni tumanlarni poytaxt markaziga ham qatnab, yollanma ishlarda ishlaydiganlar talaygina. Hudud aholisi yollanma avtobusga oyligidan katta qismini yo'l haqi uchun to'lab, Toshkent shahridagi obodonlashtirish boshqarmasidan tortib tekstil fabrikalari-yu, ishlab chiqarish korxonalarigacha qatnab ishlaydi. Bunday oilalar maktabga chiqqan bolasining ust-boshi-yu kitob-daftariga amal-taqal pul yetkazib bersa ham katta gap. Xususi bog'cha deganlari ham havoyi bir orzuga o'xshaydi.



## 4 MEHNAT QONUNCHILIGINI O'RGANAMIZ

Mehnat kodeksining 104-moddasi-da mehnat shartnomasining mazmuni ko'rsatilgan bo'lib, u ikki qismdan iborat. Birinchi qismida mehnat shartnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan shartlar ko'rsatilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- ish joyi;
- mehnat vazifasi;
- ishning boshlanish sanasi;
- mehnatga haq to'lash shartlari, (shu jumladan xodimning tarif stavkasi yoki maoshi miqdori, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va rag'batlantiruvchi to'lovlar);
- xodim bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilgan taqdirda mehnat shartnomasining muddati;
- ish vaqti va dam olish vaqti rejimi;
- ish joyidagi mehnat sharoitlarining xususiyatlari ko'rsatilgan holda normal sharoitlardan farq qiladigan sharoitlardagi ish uchun kafolatlar va kompensatsiyalar;
- zarur bo'lgan hollarda ishning xususiyatini belgilaydigan shartlar

Ikkinchi qismida mehnat shartnomasiga kiritilishi mumkin bo'lmaydigan qo'shimcha shartlar kiritilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- ish joyini aniqlashtirish;
- ishga qabul qilish chog'idagi dastlabki sinov haqida;
- bir necha kasbda (lavozimda) ishlaganlik to'g'risida;
- davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilmaslik haqida;
- agar o'qitish ish beruvchining mablag'lari hisobidan olib borilgan bo'lsa, xodimning o'qishdan keyin shartnomada belgilangan muddatdan kam bo'lmagan muddatni ishlab berish majburiyati to'g'risida;
- xodimni qo'shimcha sug'urta qilish turlari va shartlari haqida;
- xodimga va uning oila a'zolariga taqdim etiladigan ijtimoiy-maishiy sharoitlar to'g'risida;
- xodimning ish sharoitlariga nisbatan qo'llaniladigan xodimning va ish beruvchining mehnat va boshqa qonunchilikda huquqlari va majburiyatlarini aniqlashtirish haqida.

### ISH BERUVCHI VA XODIM O'RTASIDAGI MUNOSABAT

Mehnat kodeksiga ko'ra, muddatli mehnat shartnomasining eng ko'p muddati 3 yil etib belgilandi. Avvalgi Mehnat kodeksida muddatli mehnat shartnomasi 5 yildan ko'p bo'lmagan muddatga tuzilishi mumkin edi.

**Amaldagi Mehnat kodeksi 7 bo'lim, 34 bob, 581 moddadan iborat. U umumiy va maxsus qismlarga ajratilgan. Umumiy qismda tartibga solinadigan munosabatlar, kodeksning vazifalari, prinsiplari, mehnat qonunchiligining amal qilish sohalari, jamoa shartnomasi va kelishuvlari, muddatlarni hisoblash haqida tushunchalar berilgan. Maxsus qismda esa ishga joylashtirishdan to' mehnat nizolarini ko'rib chiqishgacha bo'lgan mehnat munosabatlarini tartibga solish ko'rsatib o'tilgan.**

# JAMOA SHARTNOMASIDAN MEHNAT

## MEHNAT SHARTNOMASI

Mehnat kodeksida muddatli mehnat shartnomasini bekor qilishda ish beruvchi xodimni 3 kun oldin xabardor qilishi shartligi belgilangan. Shuningdek, kodeksga ko'ra, xodimning tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish bo'yicha xodim ish beruvchini 14 kun ogohlantirib, ariza bilan murojaat qilishi kerak. Shu 14 kunlik muddatning o'tishi ish beruvchi arizani qabul qilib olgandan keyin hisoblanadi.

Shuningdek, kodeksda ayrim toifadagi xodimlar uchun alohida muddatlar belgilangan. Ya'ni, ular:


- tashkilot rahbari – 2 oy;
- tashkilot o'rinbosarlari, tashkilotning bosh buxgalteri va tashkilot alohida bo'linmasining rahbari – 1 oy;
- mavsumiy xodimlar – 3 kalendar kun;
- vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan shaxslar – 3 kalendar kun;

- mikrofirmalar ish beruvchilari-ning xodimlari – 7 kalendar kun;
- yakka tartibdagi tadbirkorlarda ishlaydigan shaxslar – 7 kalendar kun;
- uy ishchilari – 7 kalendar kun oldin mehnat shartnomasini bekor qilish bo'yicha ish beruvchiga ariza bilan murojaat qiladi.


## VAQTINCHA XIZMAT SAFARI

Kodeksda, shuningdek, xodimni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish tartibi ham aniq belgilab berilgan. Bunda xodimning yozma roziligiga asosan uni boshqa ish beruvchiga vaqtincha xizmat safariga yuborish mumkin. Xodim yangi ish beruvchi bilan 1 yillik muddatli mehnat shartnomasi tuzadi va uning ish haqi yangi ish beruvchining hisobidan to'lanadi. Bu davrda amaldagi ish joyi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to'xtatib turiladi.

Kodeksda mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusiga ko'ra bekor qilishda kasaba uyushmasi qo'mitasining roziligini olish bo'yicha ham muhim norma mavjud. Ya'ni, kasaba uyushmasi qo'mitasi xodim bilan mehnat shartnomasini bekor qilishga roziligi masalasi bo'yicha qabul qilingan qaror haqida mehnat shartnomasini bekor qilish huquqiga ega bo'lgan mansabdor shaxsning yozma taqdimnomasi olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda ish beruvchiga xabar qilishi kerak. Agar ko'rsatilgan muddat tugaganidan keyin kasaba uyushmasi qo'mitasi qabul qilingan qaror haqida xabar qilmasa, ish beruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini belgilangan tartibda kasaba uyushmasi qo'mitasining roziligsiz bekor qilishga haqli etib belgilangan.



# NIZOLARIGACHA



## XIZMAT TEKSHIRUVI O'TKAZISH TARTIBI

Amaldagi Mehnat kodeksiga avvalgi Mehnat kodeksida ko'rsatilgan "Xizmat tekshiruvini" tushunchasi ham kiritilgan.

Xizmat tekshiruvini nima? U xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgani faktini, uning sodir etilishida xodimning aybini, xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilishiga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni, ish beruvchiga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararining xususiyati va miqdorini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan tekshirishdir.

Xizmat tekshiruvini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun asoslar:

- ommaviy axborot vositalarining xabarlari;
- xodimning bevosita rahbarining bildirgisi;
- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda xodim tomonidan intizomiy qilmish sodir etilgan deb taxmin qilish uchun asos beradigan boshqa ma'lumotlar.

Xizmat tekshiruvini o'tkazish muddati o'n besh ish kunidan oshmasligi kerak. Xizmat tekshiruvini o'tkazish muddatini yana o'n besh ish kunigacha uzaytirish mumkin. Xizmat tekshiruvini o'tkazish muddati davomida xodimning o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

## AYOLLARGA IMTIYOZLAR

### Ayollarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

Mehnat kodeksida homilador ayollarga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida antenatal (tug'uruqqa) parvarishlash (perinatal skrining va tashxis, majburiy tibbiy ko'riklar va boshqa majburiy tibbiy muolajalar) uchun o'rtacha ish haqi saqlangan holda qo'shimcha bo'sh kunlar berishi shartligi belgilangan. Antenatal parvarishlash tartibi va muddatlari Vazirlar Mahkamasi

tomonidan belgilanadi.

Kodeksda, shuningdek, homilador ayollar va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bekor qilish alohida-alohida moddalar bilan ko'rsatilgan. Homilador ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish tartibi ham belgilangan. Uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan ayrim hollarda bekor qilish mumkinligi belgilangan. Ular:

- tashkilot yoki ta'sis hujjatlari bilan bunga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qarori bilan tugatilgani yoxud yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan faoliyatning tugatilgani;
- xodimning o'z mehnat majburiyatlarini muntazam ravishda buzganligi;
- xodimning o'z mehnat majburiyatlarini bir marta qo'pol ravishda buzganligi;
- xodimning malakasi yetarli emasligi oqibatida egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishiga loyiq emasligi munosabati bilan xodim ta'tildan chiqqan kundan e'tiboran bir yil ichida yo'l qo'yilmaydi.

## 16-18 YOSHLILAR UCHUN ISH VAQTI

### O'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

O'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlar va o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun kunlik ishning davomiyligi qancha bo'lishi aniq qilib belgilanib, quyidagi muddatlar belgilangan:

- o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun – olti kunlik ish haftasida – to'rt soatdan, besh kunlik ish haftasida –

besh soatdan;

- o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun esa olti kunlik ish haftasida – olti soatdan, besh kunlik ish haftasida – yetti soatu o'ttiz daqiqadan;
- o'quv yili davomida ishni o'qish bilan birga olib boruvchi umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tashkilotlarining o'n beshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan o'quvchilari uchun – olti kunlik ish haftasida – ikki soatdan, besh kunlik ish haftasida – ikki soatu o'ttiz daqiqadan,
- o'n oltidan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'quvchilari uchun esa olti kunlik ish haftasida – uch soatdan, besh kunlik ish haftasida – to'rt soatdan oshmasligi lozim.

## O'RINDOSH XODIMLAR UCHUN

### O'rindoshlik asosida ishlovchi shaxslarning mehnatini huquqiy jihatdan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

Xodimga topshirilayotgan qo'shimcha ish quyidagilar vositasida bajarilishi mumkin:

- xodim mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan asosiy ishga nisbatan boshqa kasb (lavozim) bo'yicha qo'shimcha ishni bajarayotgan hollarda bir necha kasbda (lavozimda) ishlash;
- xodim asosiy ishidagi ayni o'sha kasb (lavozim) bo'yicha qo'shimcha ishni bajarayotgan hollarda xizmat ko'rsatish doiralarini kengaytirish yoki ishlar hajmini ko'paytirish;
- vaqtincha yo'q bo'lgan xodimning majburiyatlarini mehnat shartnomasida belgilangan, asosiy ishidagi ayni o'sha kasb (lavozim) yoki boshqa kasb (lavozim) bo'yicha ishdan ozod

etilgan holda bajarish.

Qo'shimcha ishni bajararganlik uchun haq to'lash:

- xodim mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan asosiy ishga nisbatan boshqa kasb (lavozim) bo'yicha qo'shimcha ishni bajarayotganda yoki ishlar hajmini ko'paytirganda haq to'lanadi;
- vaqtincha yo'q bo'lgan xodimning majburiyatlarini bajarish asosiy ishdan ozod etilmagan holda bajarishni shtatdagi uning o'rnini bosa-digan, mehnat to'g'risidagi qonunchilikka, mehnat shartnomasiga, mansab yo'riqnomasiga muvofiq o'z lavozim majburiyatlariga kiradigan shaxs zimmasiga yuklatilganda haq to'lanmaydi.

Mehnat kodeksiga asosan mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga qonuniy ravishda kirib kelgan chet el fuqarolari o'n sakkiz yoshga to'lganda xodim sifatida yakka tartibdagi mehnat munosabatlariga kirishish huquqiga ega.

## MEHNAT NIZOSINI SUDDA KO'RIB CHIQISH

Mehnat kodeksida yakka tartibdagi mehnat nizosining ko'rib chiqilishi uchun sudga murojaat qilishning quyidagi muddatlari belgilangan:

- ishga tiklash to'g'risidagi nizolar bo'yicha – xodim u bilan mehnat shartnomasi bekor qilingani haqidagi ish beruvchi buyrug'ining ko'chirma nusxasi topshirilgan kundan etiboran 3 oy; (avvalgi Mehnat kodeksida bu muddat 1 oy edi) boshqa mehnat nizolari bo'yicha – xodim o'zining huquqi buzilgani to'g'risida bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan e'tiboran 6 oy. (avvalgi Mehnat kodeksida bu muddat 1 oy edi).



## 6 JARAYON

Shu ma'noda aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kosonsoy tumanidagi Xalq qabulxonasi ham hudud aholining murojaatlarini ijobiy hal etish, ularni qiynab kelayotgan muammolarga o'z vaqtida yechim topish borasida samarali faoliyat yuritmoqda. Bu esa joriy yilning 1-sentabr holatiga qayd etilgan raqamlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi.

O'tgan davr mobaynida Kosonsoy tumani aholisidan Prezident virtual hamda Xalq qabulxonasiga 4 ming 482 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 1 ming 144 ta murojaat taalluqliligi bo'yicha yuqori tashkilotlarga yuborilib, ko'rib chiqilishi ta'minlangan. 33 tasi bevosita Xalq qabulxonasi tomonidan o'rganildi. Tuman miqyosidagi tashkilotlar tomonidan hal etilishi lozim bo'lgan 3 ming 433 ta murojaat esa nazoratga olingan. Qolaversa, tumandagi 4 ta sektor rahbarlari bilan hamkorlikda aholi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar, 150 marotaba sayyor qabul o'tkazildi. Ayni tadbirlarda 3 ming 802 nafar fuqaro ishtirok etgan. Sayyor qabullarda 816 nafar shaxsdan turli masalalardagi murojaatlar tushgan. Murojaatlarning 88 foizi qanoatlantirilgan.

Prezidentimizning "Insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir", "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan fikrlari xalq qabulxonalari faoliyatida dasturlamal bo'lmoqda.



### Murojaatga bee'tibor qaragan mas'ullar jazosiz qolmaydi

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, murojaatlar bilan ishlash barcha idoralarda ham birdek emas. Binobarin, bu borada kamchiliklarga yo'l qo'ygan shaxslarga qat'iy ta'sir choralarini qo'llanilmoqda. Jumladan, davlat organlari va tashkilotlarga 17 ta taqdimnoma, 12 ta taklif, 52 ta ko'rsatma hamda Xalq deputatlari tuman Kengashiga 12 marotaba axborot kiritilgan. Natijada 22 nafar xodim ogohlantirilgan, 28 nafar xodim intizomiy, 1 nafari esa ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

Bundan tashqari, 2023-yilda aholi muammolarini o'rganish va hal qilish, kam ta'minlangan, ijtimoiy hiyoyaga muhtoj oilalarga yordam ko'rsatish kabi ishlar "mahallabay" tarzda amalga oshirilmoqda. Aytaylik, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, og'ir maishiy sharoitda yashayotgan, boquvchisini yo'qotgan, nogironlarni parvarish qilayotgan oilalarning muammolari tuman Xalq qabulxonasi, sektor rahbarlari hamda mutasaddi

tashkilotlar ko'magida bartaraf etilmoqda. Xususan, Kosonsoy tumandagi "Navro'z" mahallasida yashovchi yakka-yu yolg'iz fuqaro R. Xudayberdiyevaning turmush o'rtog'i va 2 nafar o'g'li ruhiy kasallikdan vafot etgani, bitta o'g'li esa muruvvat uyida davolanayotgani, uy-joyi ta'mirlalab holatda ekani aniqlandi. Shu bois, uning 100 metr kvadratdan iborat uy tomi yangilanib, binoning fasad va xonalari ta'mirlandi. Hovli yo'laklariga esa beton qorishmasi yotqizildi.

Shuningdek, 2023-yil fevral oyida jazoni ijro etish muassasasidan qaytgan nogiron, kam ta'minlangan fuqaro A. Sattorov "Bog'ishamol" mahallasida joylashgan xonadonda og'ir sharoitda yolg'iz yashab kelayotgani aniqlandi. Binobarin, unga yangi uy-joy qurib berildi.

Albatta, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Lekin gap misollarda emas, balki aholining Prezident virtual va Xalq qabulxonasiga qilgan har bir murojaati ijobiy hal etilayotganida. Zero, yangilangan Konstitutsiyamizda ham "Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" deya ta'kidlangan.

Tohiraxon MO'YDINOVA,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Kosonsoy tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri

Sayxunobod tuman adliya bo'limiga "Ozod-Malika yo'l qurilish" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbaridan murojaat kelib tushdi. Unda tadbirkor Guliston tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasidan xizmat haqini o'lmayotganini ma'lum qilib, amaliy yordam so'ragan.

## TADBIRKORNI TANG QOLDIRGAN KORXONADAN HAQ UNDIRILDI



Aniqlanishicha, 2017-yil 18-may va 2018-yil 8-noyabr kunlari "Ozod-Malika yo'l qurilish" mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan Guliston tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi o'rtasida pudrat shartnomasi tuzilgan. Unga ko'ra, MChJ Guliston tumandagi 20 ga yaqin ko'chalarda joriy ta'mirlash ishlarini bajargan. Biroq korxonaga qarzini to'lamagan. Boz ustiga haqdorning qarzdorlikni bartaraf etish yuzasidan yuborgan talabnomalarini ham oqibatsiz qoldirgan. Binobarin, adliya bo'limi tomonidan "Ozod-Malika yo'l qurilish" MChJ manfaatini ko'zlab, Guliston tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo ariza kiritildi.

Sud da'vo arizani qanoatlantirib, Guliston tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi hisobidan "Ozod-Malika yo'l qurilish" MChJ foydasiga 83.064.338 so'm asosiy qarz va 12 million so'm penya undirish xususida hal qiluv qarori qabul qilindi.

Farhod SIDDIQOV,

Sayxunobod tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi

### TASHABBUS



## MAKTABDA

YO'L HARAKATI  
QOIDALARINI O'RGATUVCHI  
MAYDONCHA QURILDI



Farg'ona viloyatidagi 26-sonli umumta'lim maktabida "Maddad" NNT tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasi asosida bolalar uchun yo'l harakati qoidalari o'quv maydonchasi qurib, foydalanishga topshirildi. Loyiha Adliya vazirligi bilan hamkorlikda Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi mablag'lari hisobidan amalga oshirildi.

Hozirda ushbu maydonchada yo'l harakatining bevosita ishtirokchisi hisoblangan o'quvchilarga yo'l harakati qoidalari o'rgatilmoqda.

O'quv maydonchasiga asfalt qoplama yotqizilgan. Unga yo'l harakatlarini tartibga soluvchi yo'l belgilari chizilib, svetoforlar o'rnatilib, ishga tushirildi.

Shu bilan birga, yo'llovchilar uchun jamoat transportlari to'xtab o'tishiga mo'ljallangan namunadagi bekat, yo'l harakatlarini tartibga soluvchi turli yo'l belgilari ham o'rnatildi.

O'z muxbirimiz

# SOLIQ TO'LASHDA IQLIM O'ZGARISHLARI HISOBGA OLINADIMI?

**Har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning muhim vositasi sifatida soliq'larga alohida e'tibor qaratadi. Chunki davlat budjeti daromadlarining aksariyat qismi soliq'larni hissasiga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, soliq'larni joriy etish va ularni undirish masalasi hamisha dolzarb bo'lgan.**



Konstitutsiyaning 51-moddasida "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'img'irlarni to'lashga majburdir" deb qayd etilgan. Soliqlar kodeksining 17-moddasiga asosan, soliq to'lovchilarning 10 xil turdagi soliq majburiyatlari mavjud.


Ayni paytda soliq to'lovchilar uchun yer solig'i stavkalarini belgilash va ularni to'lash borasida ayrim muammolar hamda tushunarsiz holatlar yuzaga kelayotir. Bu tushunmovchiliklar bugungi suv tanqisligi, yerlarni suv bilan ta'minlash imkoniyati mavjud yoki mavjud emasligidan kelib chiqmoqda. Ya'ni, ba'zi hududlarda oqar suv bilan sug'oriladigan yerlar keskin kamayib, buning natijasida yerning sifati va unumdorligi pasaygan. Shu o'rinda soliq to'lovchilarda "Soliq stavkalari yerning unumdorligi pasayishiga qarab belgilanganmi?" degan savol tug'ilishi tabiiy.



Shuni ta'kidlash lozimki, Soliqlar kodeksining 429 va 437-moddasiga muvofiq, jismoniy yoki yuridik shaxslar uchun belgilanadigan shaklliga qarab qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkalari respublika hududlari kesimida 1 gektar yer uchun yoki 1 kv. m uchun mutloq o'lchamda qiymati belgilangan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda bazaviy soliq stavkalari asosi-

da qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi. Demak, viloyat miqyosida soliq stavkalarini belgilash bazaviy soliq stavkasidan kelib chiqqan holda deputatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Tuman darajasida soliq stavkasini belgilash ham tuman va shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida kiritadi.



Tuman, shahar xalq deputatlari kengashlari keyingi soliq davri uchun soliq stavkalari har yili joriy soliq davrining 31-dekabriga qadar qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari joylashgan joydagi soliq organlariga taqdim etadi. Ular har yili 5-yanvarga qadar soliq to'lovchilar e'tiboriga yetkaziladi. Mazkur tartibga boshqacharoq yondashuv orqali soliq'larni belgilash mumkin. Yani, bugungi kundagi iqlim o'zgarishi yerdan unumli foydalanish va soliq stavkalarini belgilashga bevosita bog'liq hisoblanadi. Shu bois, iqlimning o'zgarish davrini yilning aynan bir vaqtda belgilash haqiqatdan yiroqdir. Iqlimdagi o'zgarishlarni hisobga olib, kamida bir yilda ikki marta yer solig'ining stavkalarini qayta belgilash lozim. Qolaversa, bu imkoniyatlar xususida soliq to'lovchilarga batafsil tushuntirish berish lozim.

Shunday ekan, soliq to'lovchilar soliq stavkalari bilan tanishgan holda tegishli yil uchun soliq'larni 15-aprel va 15-oktabrga qadar teng ulushlarda to'lashlari shart. Bu esa o'sha shaxsni intizomli soliq to'lovchilar safiga ham qo'shadi.

## E'LONLAR

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**  
2024-yil uchun tayanch doktorantura va doktorantura institutlariga quyidagi mutaxassisliklar bo'yicha qabul e'lon qiladi:

12.00.01	Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta'limotlar tarixi	2 ta PhD 1 ta DSc	
12.00.02	Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi	4 ta PhD 1 ta DSc	
12.00.03	Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq	8 ta PhD 1 ta DSc	1 ta maqsadli PhD
12.00.04	Fuqarolik protsessual huquqi. Iqtisodiy protsessual huquqi. Hakamlik jarayoni va mediat-siya	2 ta PhD	
12.00.05	Mehnat huquqi. Ijtimoiy ta'minot huquqi	2 ta PhD	
12.00.06	Tabiiy resurslar huquqi. Agrar huquq. Ekologik huquq	2 ta PhD	
12.00.07	Sud hokimiyati. Prokuror nazorati. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura	3 ta PhD	
12.00.08	Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi	8 ta PhD 1 ta DSc	
12.00.09	Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi	3 ta PhD 1 ta DSc	
12.00.10	Xalqaro huquq	3 ta PhD	
<b>Жами:</b>		<b>37 ta PhD 5 ta DSc</b>	<b>1 ta PhD</b>

## HUJJATLAR 2023-YIL 15-SENTABRDAN 15-OKTABRGACHA QABUL QILINADI

**Tayanch doktorantura (PhD), mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumot (obyektivka – namuna 3.5 shakl bo'yicha o'zbekcha va ruscha shaklda);
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki klinik ordinarurani tugatganligi (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risida diplom nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari (kamida 1 ta maqola va 2 ta tezis);
- ish joyidan tavsifnoma (Mustaqil izlanuvchilar uchun);
- pasport nusxasi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi hujjat nusxasi (mavjud bo'lsa);
- til bo'yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat.

**Doktorantura (DSc), mustaqil izlanuvchilik doktorantura (DSc)ga o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:**

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumot (obyektivka, namuna bo'yicha 3.5 shakl, o'zbekcha va ruscha shaklda);
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining batafsil loyihasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari (kamida 3 ta maqola va 2 ta tezis);
- ish joyidan tavsifnoma (Mustaqil izlanuvchilar uchun);
- pasport nusxasi;
- ilmiy yutuqlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi hujjat nusxasi).

Barcha hujjatlar pdf shaklida tayyorlanib, Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtiruvchi Yagona elektron tizimi (<http://phd.mininnovation.uz>) orqali ro'yxatdan o'tgan holda yuboriladi.

**Ma'lumot uchun quyidagi manzilga murojaat qilish mumkin:**  
Toshkent sh., Sayilqoh ko'chasi, 35-uy,  
TDYU, Ilmiy boshqarma.  
Tel.: 233-66-36. Ichki: (1043)

Namangan viloyat adliya boshqarmasi tomonidan "Ximoyachi Axror Muxiddinov" advokatlar byurosi advokati Muxiddinov Axror Abdumaxmidovichga boshqarma tomonidan 2022-yil 14-dekabrda berilgan ma'muriy va jinoyi sud ishlarini yuritish ixtisosligi bo'yicha NA 000281 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasiga asosan tugatildi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 29-avgustdagi 146-um-sonli buyrug'i bilan, Jizzax tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 26-iyuldagi hal qiluv qaroriga asosan "Yorqin malakali shans" advokatlik byurosi advokati Turanov Ergash Egamberdiyevichga 2018-yil 28-dekabrda berilgan GZ 000047-sonli advokatlik litsenziyasining amal qilishi va advokatlik maqomi 15 (o'n besh) kun muddatga ya'ni 2023-yil 30-avgustdan 2023-yil 14-sentabrga qadar to'xtatildi.

## 8 ADABIY AYVON



## Tansiq

Shahrimizga hali qirdan lola kelmagan edi.

Keksalar to'qson chiqdi-yu, oppon-soppon hali turibdi. Bitta qor o'tsin undan keyin hamal kiradi, deyishardi.

Ammo Chilonzor tomonda turadigan bir temiryo'lchi juvon ochiq mashinada bir dasta lola ko'tarib o'tdi.

Hammaning ko'zi uning qo'lidagi lolada. O'tgan ham, ketgan ham qaraydi. Mashina tez yurganidan shamol lolani shunday hilpiratadiki, o'tobda u xuddi lov-lov yonayotganga o'xshaydi.

Shu payt shamol lolaning bittasini yulqib oldi-da, ko'cha o'rtasiga uloqtirdi.

Mashinalar katta tezlik bilan biri ketidan biri uchib bormoqda. Shofyorlar lolaga yetay deganda rul burib uning yonidan aylanib o'tib ketishadi.

Mana shu ahvolda kun choshgoh bo'ldi. Lola hali ham ko'cha o'rtasida cho'g'dek yonib turibdi. Mashinalar hamon uning yonidan aylanib o'tib ketishyapti.

Yo'lovchilar yuraklarini hovuchlab ishqilib mashina bosib, ezg'ilab ketmasin-da, deb tashvish qilishadi.

Oxiri ko'chani tartibga solib turgan militsioner chidamadi. Ko'cha o'rtasiga tushdi.


Mashinalar biri ketidan biri tormoz berib to'xtashdi.

Postvoy ohista borib lolani oldidi, furajkasi tagidan chakkasiga qistirib qo'ydi.

Mashinalar g'iz-g'iz o'tib turibdi. Shofyorlar, yo'lovchilar chorrahaga kelganda mashina derazasidan bosh chiqarib, militsioner chakkasidagi lolaga qarashadi. Ularning yuzida bir chiroyli tabassum portlaydi.

Shu kuni lola ochilganini butun shahar bildi.

Odamlar diliga bu yil bahor vaqtilroq kirgandek bo'ldi.

Said  
AHMAD

## Bir umr...

Teatr maydonidagi sahn bahor kezlari juda gavjum bo'ldi.

Qari-qartang, yosh-yalang skameykalarga o'tirib olib o'zlarini o'tobga tovlashadi. Kampirlar aravachalarda nevaralarini olib kelib, o'zlari ko'z oynak ustidan gazetani yalagudek qilib o'qishadi.

Men ham bo'sh paytlarimda shu yerda hordiq chiqarishni juda yaxshi ko'raman.

Bir kun kioskadan gazeta olib o'qib o'tirgan edim, yonimda hassasini skameykaga tirab bir xotin o'tirardi. Uning oldidagi havo rang aravachada nevarasi ipi tugmasiga bog'lab qo'yilgan qizil sharni ushlavololmay qiyqiradi. Kampir unga beparvo, o'tgan-ketganlarni tomosha qiladi.

– Nevarami? – dedim. Kampir o'g'rilib qaradi.

– Yo'q, aylanay, chevare. Chevare shirin bo'larkan. Onasi yosh. Dadasining o'zi bola. O'zim oyoqqa turg'izib bermasam eplasholarmidi.

– Hali yurmaydimi?

– Yurish qayoqda aylanay. Endi toy-toy turyapti.

Bilaman, bolalar juda ayyor bo'lishadi. Ko'taradigan odamni topishsa sira yerga oyoq qo'yishmaydi. Bu bola ham shunaqa qilayotgandir. Kampirning mehribonligidan foydalanayotgandir.

– Yurib ham ketardi, qish paytida bola yurishga erinadi. Mana oftob odamning yelkasini qizdirib qoldi. Endi yurib ketar.

Kampir shunday deb bolani aravachadan oldi. Ikki qo'ltig'idan ushlab yerga qo'ydi. Bola avvaliga tizzasini bukib tixirlik qilib turdi-da, keyin ikki oyog'ini yerga tiradi.

– Qani, amaklarga bitta toy-toy turib bergin.

Kampir uni qo'yib yubordi. Bola xuddi havoda muallaq qolgandek omonat turib qoldi, keyin birdan oldinga sho'ng'ib ketdi. Shu sho'ng'iganda o'ng oyog'ini ko'tarib tashladi. Yiqilmadi. Keyin yana bir marta shunday qildi, mast odamdek gandraklab yurib ketdi. To'rt-besh omonat qadam tashlab orqasi bilan o'tirib qoldi. Kampir yugurib borib uni ko'tardi. Bola endi aravaga o'tirgisi kelmay, yerga tushishga xarxasha qilaverdi. Kampir uni yerga qo'yishga majbur bo'ldi.

Shu alpozda bola uch-to'rt marta yurishga intildi. Oxiri pildirab besh-olti qadam bosadigan bo'lib qoldi. Kampir xursand.

Ularga qarab turib, o'ylab ketibman.

Bolaning oyog'iga yerga tegdi. Birinchi qadami boshlandi.

EH-he, bu odam hali hayotda qanchadan-qancha yerlarni shu oyoq bilan bosib o'tadi. Umr bo'yi...



## Haykal

Buxoroda qadim imoratlar ko'p.

Bu ko'hna shahar ko'chalarida xayolchan kezarkanman bir to'da sayyohlar boshi bulutga chulg'angan minoraga qarab turishganini ko'rdim. Ularga keksa bir ilmiy xodim minora tarixini tushuntiryapti. Quloq soldim.

– Yetti yuz yil bo'lgan bu minoraning qurilganiga.

Sayyohlar hayrat bilan yoqalarini ushlashdi.

Men bu xil yodgorliklarni ko'p ko'rganman. Armanistondagi to'rt ming yillik Dvin xarobalari, Kegart qal'alarini, necha ming yillar muqaddam yozilib bizga yetib kelguncha toshga aylangan kitoblarni ko'rganman. Shularni odam yaratgan, ularda odam qo'lining izi bor.

Buxoro ko'chalarida kezarkanman juda ko'p xotiralar xayolimdan o'tadi. Asrlar qo'rida qolib ketgan jangu jadallarni ko'rgandek, qilich-qalqonlarning jarangini eshitgandek bo'laman.

Bularning barini tarix shamollari uchirib ketdi. Odamlarning xotiridan yulib ketdi.

Ammo ko'hna devorda qolgan besh barmoq izi hali ham ko'rinish turibdi. Bu ming yillar qo'rida yo'q bo'lib ketgan odam qo'lining izi. Shu azamat binoga g'isht tergan me'mor qo'lining izi.

Odam qo'ligina odamga abadiy haykal qo'yishiga ana o'shanda ishonganman.

INSON  
va qonunMUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI"Adolat" milliy huquqiy axborot  
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0081-raqam bilan  
ro'yxatga olingan

ISSN 2020-7897

Bosh  
muharrirAsliddin  
ALIMARDON

## TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov  
Furqat Tojiyev  
Xayotjon Klichev  
Sevara O'rinboeva  
Yorbek Iskandarov  
Dilfuza ErgashevaTahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.Navbatchi  
Gulbahor Ortiqo'jayeva  
Sahifalovchi-dizayner  
Jasur Tojiyboev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"  
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter  
bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq  
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi-  
da chop etildi.Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,  
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uyTiraj – 3500  
Buyurtma – 2664Tepahrih vaqti – 19:00  
Topshirildi – 18:00

## MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.  
Amir Temur shohko'chasi  
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:  
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5